

**O'QUVCHI YOSHLARNI HARBIY-VATANPARVARLIK RUHIDA
TARBIYALASHDA MILLIY QADRIYATLARDAN FOYDALANISH
ИСПОЛЬЗОВАНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ВОСПИТАНИИ
СТУДЕНТОВ В ДУХЕ ВОЕННОГО ПАТРИОТИЗМА
USE OF NATIONAL VALUES IN THE EDUCATION OF STUDENTS IN THE
SPIRIT OF MILITARY PATRIOTISM**

Sayidumarova Zarnigor Farhodjon qizi

Farg'ona davlat universiteti Pedagogika yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Vatanimizning asosiy kuchi, taraqqiyotimizning asosiy ustuni bo'lgan Yoshlarimizning harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonida milliy qadriytlarning o'rnini muhokama etilgan. Shu bilan birga yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimi hamda bugungi kunda harbiy vatanparvarlik tarbiyalashda to'sqinlik qiladigan ayrim muommolar bilan ham tanishtirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Yoshlar ittifoqi, harbiy-vatanparvarlik, tarbiya, ta'lim, mas'uliyat tuyg'usi, jamoatchilik, ilmiylik, tarixiylik.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль национальных ценностей в процессе воспитания нашей молодежи, которая является главной силой нашей страны и главной опорой нашего развития, в духе военного патриотизма. Вместе с тем были внедрены также система воспитания молодежи в духе военного патриотизма и некоторые проблемы, которые сегодня препятствуют воспитанию военного патриотизма.

Ключевые слова: Союз молодежи, военно-патриотизм, воспитание, образование, чувство ответственности, общественное, научное, историчность.

Abstract: This article discusses the role of national values in the process of educating our youth, who are the main strength of our country and the main pillar of our development, in the spirit of military patriotism. At the same time, the system of educating young people in the spirit of military patriotism and some problems that hinder the education of military patriotism today were also introduced.

Key words: Youth Union, military-patriotism, upbringing, education, sense of responsibility, public, scientific, historicity.

KIRISH. "Yosh avlodimizda qat'iy hayotiy pozitsiya va Vatanimiz taqdiri uchun yuksak mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish alohida muhim ahamiyatga ega. Shuni hisobga olib, mamlakatimizda o'rta maktabdan boshlab oliy o'quv yurtlarigacha qamrab oladigan uzluksiz harbiy ta'lim va vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha o'ziga xos noyob va yaxlit tizim yaratilmoqda" deb ta'kidlagan edi prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev. Bugungi kunda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlarini muvofiqlashtirish, yaxlit tizimga solish, mazkur ishlar ko'lamdorligi va natijadorligiga erishish chora-tadbirlari talab darajasida olib



borilmayotganligi, yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlarida davlat va nodavlat tashkilotlari, ta'lim muassasalari va keng jamoatchilik ishtirokining sustligi, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash sohasida Qurolli tuzilmalar, davlat hokimiyati organlari, jamoat birlashmalari va ta'lim muassasalari o'rtasida samarali hamkorlikning to'g'ri yo'lga quyilmaganligi, mahallalarda, ta'lim muassasalarida va harbiy qismlarda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlarini prinsipial jihatdan yangicha yondashuv asosida yo'lga qo'yish va tizimga solishga hayotiy muhim ehtiyoj sezilayotganligiga guvoh bo'lamiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ob'ektlari millati, tili, jinsi, ijtimoiy mansubligidan qat'i nazar, barcha yoshlardan, xususan, quyidagilardan iborat bo'ladi: maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilaridan; umumiy o'rta ta'lim muassasalari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari va oliy ta'lim muassasalari talabalaridan; uyushmagan yoshlardan; oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlari va tinglovchilaridan; harbiy xizmatchilardan; tashkilot va korxonalarda faoliyat olib borayotgan yoshlardan. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy tamoyillari mazkur jarayonning ilmiy jihatdan asoslangani, uning muntazamligi, ta'lim- tarbiya va amaliyotning o'zaro uyg'unligi, tarixiylik va zamonaviylikning uzviy bog'liqligi bilan ifodalanadi va quyidagilardan iborat bo'ladi: ilmiylik; tarixiylik; aniqlik va tezkorlik; muntazamlilik; faollik; ta'lim-tarbiya ishlarining uyg'unligi; tarbiya jarayonining izchilligi; harbiy-vatanparvarlik tarbiyasida erishilgan ijobiy natija va yutuqlarga tayanish tamoyillari. IV. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning usul va shakllari Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash usullari – yoshlarda zarur hayotiy bilim, ko'nikma, mahorati va mustahkam irodani, jumladan, yuksak ma'naviy- axloqiy, jangovar ruh va fuqarolik fazilatini shakllantirishga qaratilgan, ularning ongi, ruhiyati va faoliyatiga ta'sir ko'rsatadigan usul va uslublarni anglatadi. Quyidagilar yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy usullaridan hisoblanadi: ishontirish; mashq qildirish va mustaqil ishlash; kuzatish; rag'batlantirish; o'rnak ko'rsatish, shaxsiy namuna va boshqalar.

NATIJALAR VA MUHOKAMA Oldingi mashg'ulotlarimizda biz yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ba'zi shakllarini ko'rib chiqdik. Bular: Ma'ruza, mavzuviy kechalar, nazariy konferentsiyalar, mehnat va urush faxriylari bilan uchrashuvlar, xalqimiz mehnat va jangovar shon-shuhrati joylariga sayohatlar uyushtirish. Qay bir harbiy vatanparvarlik tarbiyasi shaklini tanlamaylik, ular hammasi bitta maqsadni ko'zlab amalga oshiriladi, ya'ni yoshlarni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida xizmat qilish, armiyaga muhabbat, Vatan himoyasiga doim tayyor turishga tayyorlash maqsadiga aniq yo'l ko'rsatishdan iboratdir. Adabiyotlar o'quvchilarni Vatanni himoya qilishning ming yillik an'analari haqida o'ylashga majbur etadi, Vatanning mustaqilligi uchun tarixiy janglar qahramonlari bilan faxrlanish hissini uyg'otadi. Xalqning buyukligini ko'rsatadi, Vatanni himoya qilishga chorlaydi, dushmanga nafrat uyg'otadi. Adabiyot o'quvchilarga Vatan uchun kurash ahamiyatini ochib beradi, yoshlarga butun yuragi bilan bu kurash chiroyi va





oliyjanobligini ochib beradi. Malika To'maris, cho'pon Shiroq, Spitamen, Muqanna, A.Temur, Ulug'bek, Bobur, S.Raximov, L.Alieva, K.Suyunova obrazlari o'quvchi yoshlar uchun ma'naviy namuna hisoblanadi. Xalqning o'z mustaqilligi uchun kurashiga bag'ishlangan adabiy asarlar o'quvchilarga urushlarning yuzaga kelishi sabablarini tushunish,

XULOSA Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning shakllari. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash turli shakllarda, jumladan, ilmiy, amaliy anjumanlar, savol-javob kechalari, kitobxonlik, elektron o'yinlar, mashhur kishilar bilan uchrashuvlar tarzida va boshqa shakllarda tashkil etiladi va ular ma'naviy ma'rifiy ishlarning rang-barangligini ta'minlaydi, pirovard natijada jamiyatda Vatan himoyasiga doimo tayyor bo'lish va Qurolli Kuchlar safida xizmat burchini o'tayotgan yoshlar bilan faxrlanish, konstitutsion burch va harbiy qasamyodga sodiqlik tuyg'ularini shakllantirish; harbiy xizmat sharoitlariga moslashish va harbiy ixtisosliklarni puxta egallash, har qanday qiyinchilikka tayyor turish, matonat va jasorat fazilatlarini mustahkamlash, qurol-aslaha, harbiy texnika, davlat va harbiy mulkni asrab-avaylash ko'nikmalarini rivojlantirish; jangovar tayyorgarlik va harbiy mahoratni muntazam oshirib borish, harbiy jamoada qaror topgan o'zaro yordam va do'stona munosabatlarni qadrlash kabi fazilatlarini shakllantirish; kitobxonlikni keng targ'ib etish, jamiyatda yuksak ma'naviyatni qaror toptirishda badiiy asarlarning roli va ahamiyatini yoshlar ongiga singdirish; yoshlarning o'z tanlagan kasbini puxta egallashi va yetuk mutaxassis bo'lib yetishishi uchun yaqindan ko'maklashish; milliy mafkuramizga zid bo'lgan yot g'oyalarga qarshi tanqidiy qarash va mafkuraviy immunitetni, o'ziga ishonch, hushyorlik va ogohlik tuyg'ularini mustahkamlash; yoshlarda faol hayotiy pozitsiya va o'zining mustaqil fikr-mulohazalarini aniq bayon eta olish, mas'uliyatni his etish, qat'iy tartib va intizomga rioya qilish fazilatlarini shakllantirish, ularni qat'iyatli bo'lishga o'rgatish.

XULOSA. Vatanparvarlik bu-yurtimizda mavjud bo'lgan salohiyat va boyliklarni ishga solish, ulardan oqilona foydalanish, o'z kuch imkoniyatimizga, ota-onalarimizdan qolgan bebaho meros, milliy urf-odat va an'analariga suyanish, qadriyatlarini tiklash, birbirimizga elkadosh bo'lish ehtiyojini har tomonlama tushunib etish demakdir. Vatanparvarlik, bu-O'zbekistonda xukm surayotgan tinchlik va osoyishtalikni, jamiyatimizdagi bunyodkorlik muhitini, biz barpo etayotgan farovon va osuda hayotni tuzish, tabora kuchga kirayotgan davlatimizni ag'darish, tanlagan yo'limizdan qaytarish, odamlarning yuragiga vaxima va qo'rquv solish hisobidan ularning ertangi kuniga bo'lgan ishonchini yo'qotish, bir-biriga qarshi qo'yish, yurtimizda, mintaqamizda o'z manfaati, o'z siyosatini o'tkazishga harakat qilayotgan g'animlarga qarshi kurash demakdir. Auditoriyadan tashqari ishlarda o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda ularning olgan bilimlarini amaliy hayotga tadbiiq qilishlari uchun aniq maqsad asosida munozaralar o'tkazish juda ahamiyatlidir.





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Azimova N. E. et al. Youth Is Moving Force of Civil Society //Eastern European Scientific Journal. – 2019. – №. 1.
2. Ismatova N. B. et al. Innovative techniques and their importance in the learning process //The Second International Conference on Eurasian scientific development. – 2014. – С. 101-104.
3. Tuyevich K. B., Shukurovna K. M. Communication and development of pedagogical culture of the future teacher //Вопросы науки и образования. – 2020. – №. 35 (119).
4. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining “Vatanparvar” gazetasi
5. O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining “O‘zbekiston Qurolli Kuchlari jurnali”.
6. Тохирова, М. О. (2021). МАКТАБДА ФИЗИКА ҚОНУНЛАРИГА ДОИР ФАНЛАРАРО ТАТБИҚИЙ ГРАФИК МАСАЛАЛАРНИ ЕЧИШ МЕТОДИКАСИ. Academic research in educational sciences, 2(CSPI conference 3), 626-631.